

MADANIYATNI SHAKLLATIRISHDA TILLARNING O'RNI

*Gulhayo Tog'ayeva Orzumurodovna
Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani
12-maktab ingliz tili o'qituvchisi*

Annotatsiya: E.Sepir fikricha, madaniyatni muayyan jamiyat bajarayotgan va o'ylayotgan narsalar yig'indisi deb belgilash mumkin. Til esa shu narsalarni qanday o'ylayotganidir. Bundan kelib chiqadiki, til madaniyatni namoyon etishning ichki shaklidir. Madaniyatning asosiy belgisi shaxsning ruhiy-ma'naviy jihatdan boy bo'la olishidir. Inson material va ruhiy madaniyatga tegishli bo'lgan tilni o'zlashtirish jarayonida «madaniyat dunyosi»ga sho'ng'iydi. Madaniyatning milliy xarakteri turli millatlararo til va madaniyat aloqalari, insoniyat taraqqiyotida shakllangan dunyo madaniyatidagi «fundamental asoslar»da boyib borishini taqozo qiladi. Madaniyat millat mahsuli bo'lib, milliy (maxsus, xususiy) va umumiyy (internasional) birlik hisoblanadi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va ularning nisbati, muammosi necha asrlardan beri bir qator taniqli olimlarning diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Ammo, hozirgacha bu masala bahstalabligicha qolmoqda: ba'zilarning nazarida til madaniyatga xuddi uning bir bo'lagiday qarashli, ikkinchi toifaning qarashicha, til asosan madaniyatni ifoda etish shaklidir, xolos, uchinchi guruh fikricha, til madaniyatni ifodalovchi shakl ham emas va madaniyatning unsuri ham bo'la olmaydi. 1 Misol tariqasida ikki buyuk olim, Amerika va Rossiya etnik tilshunoslik maktablari asoschilarining so'zlarini keltirishimiz mumkin. E. Suprunning fikriga binoan «Madaniyatga ma'lum jamiyat nima bilan mashg'ul va nima haqida o'ylamoqda, deb ta'rif berilsa, til ularni qay tarzda o'ylayotganliklaridir». 2 N.I.Tolstoyning yozishchicha, «Madaniyat va tilning munosabatiga, biror bir butun buyum va uning bir qismi munosabati sifatida qaralishi mumkin.

Kalit so'zlar: Fenomen, lingvistik nisbiylik gipotezasi, devoni shams, Shams shueuhi, masnaviy

Kirish: TIL – MADANIYAT FENOMENI Til hodisalarida muayyan ijtimoiy madaniyat yotadi. Dunyoning siyosiy qiyofasida dunyoning ijtimoiy-madaniy surati aks etadi. So'zlashuv tilidan real foydalanishda tildan tashqari omillar mohiyatini, tilda nima ifodalanayotganini bilish kerak bo'ladi. Lingvokulturologiya masalasida eng asosiy e'tibor uning terminologiyasiga kiruvchi tushunchalar, ularning tadqiq metodlari, manbalarini aniqlashga qaratilgan. «Til va madaniyat» konsepsiysi inson, uning tafakkurini o'rganuvchi barcha fanlardan kelib chiqadi. Insonni uning tilisiz o'rganishning iloji yo'q. Til o'zida milliy madaniyat va uning mohiyatining asosiy ko'rinishini aks ettiradi. E.Sepir fikricha, madaniyatni muayyan jamiyat bajarayotgan

va o'ylayotgan narsalar yig'indisi deb belgilash mumkin. Til esa shu narsalarni qanday o'ylayotganidir. Bundan kelib chiqadiki, til madaniyatni namoyon etishning ichki shaklidir. Madaniyatning asosiy belgisi shaxsning ruhiy-ma'naviy jihatdan boy bo'la olishidir. Inson material va ruhiy madaniyatga tegishli bo'lgan tilni o'zlashtirish jarayonida «madaniyat dunyosi»ga sho'ng'iydi. Madaniyatning milliy xarakteri turli millatlararo til va madaniyat aloqalari, insoniyat taraqqiyotida shakllangan dunyo madaniyatidagi «fundamental asoslar»da boyib borishini taqozo qiladi. Madaniyat millat mahsuli bo'lib, milliy (maxsus, xususiy) va umumiy (internasional) birlik hisoblanadi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va ularning nisbati, muammosi necha asrlardan beri bir qator taniqli olimlarning diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Ammo, hozirgacha bu masala bahstalabligicha qolmoqda: ba'zilarning nazarida til madaniyatga xuddi uning bir bo'lagiday qarashli, ikkinchi toifaning qarashicha, til asosan madaniyatni ifoda etish shaklidir, xolos, uchinchi guruh fikricha, til madaniyatni ifodalovchi shakl ham emas va madaniyatning unsuri ham bo'la olmaydi.¹ Misol tariqasida ukki buyuk olim, Amerika va Rossiya etnik tilshunoslik maktablari asoschilarining so'zlarini keltirishimiz mumkin. E. Supruning fikriga binoan «Madaniyatga ma'lum jamiyat nima bilan mashg'ul va nima haqida o'ylamoqda, deb ta'rif berilsa, til ularni qay tarzda o'ylayotganliklaridir».² N.I.Tolstoyning yozishicha, «Madaniyat va tilning munosabatiga, biror bir butun buyum va uning bir qismi munosabati sifatida qaralishi mumkin. Til – madaniyatning tashkiliy qismi yoki madaniyatning quroli (aytish joizki, bu ikki tushuncha bir xil ma'noga ega emas) deb qabul qilinishi mumkin, xususan, gap agar adabiy til yoki folklor tili haqida borayotgan bo'lsa. Lekin ayni paytda til umumiy holda madaniyatga nisbatan muxtor(erkin, mustaqil) hisoblanadi va unga madaniyatdan alohida holda ham qarash mumkin yoki til madaniyat qatori teng baholi va teng huquqli mo'jiza sifatida baholanadi». XXI asr boshiga kelib tilshunoslik tilga bog'liq bo'limgan ta'sir kuchlarini to'liq inkor etishdan - «til faqat o'zining ichida va faqat o'zi uchun» - to til muammosining ijtimoiy-madaniy, aloqaviy, ruhiy, muayyan holati o'ram (kontekst) sharoitlarni chuqur tahlil qilish zarurati va ularni «tilshunoslik onginging eng nurli nuqtasiga» (L.V. Sherba) joylashgacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Ta'kidlash joizki, XX asrning 70-yillari uchun «semantik hujum» xarakterli bo'lsa, 80-yillarda asosiy e'tibor tilning aloqaviyligiga qaratilgan edi. XX asrning oxirgi yillari «kognitiv jazava davri» bo'lsa, asrimizning dastlabki yillaridan boshlab tilshunoshlikning mazkur chegaralari kengaytirildi. Birinchi o'rinda hozirgi zamon tilidagi «ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'zgarishlar» davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar va boshqa tashqi, tilshunoslikka doir o'sha zaruriy omillar bilan bog'liq o'zgarishlardan chiqib keldi. Mazkur o'zgarishlar ko'pincha tildagi o'zgarishlarni belgilovchi omillar hisoblanadi. O'z navbatida, tildagi yangi o'ramlar jamiyatda yangi madaniyatning tug'ilishiga asos bo'ladi. V.fon. Gumboldt o'z vaqtida til va

madaniyatning o'zaro munosabatlari muammosini echishga uringan va, jumladan, «ashyoviy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlanadi. Har bir madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri dunyoni turlicha talqin qilish orqali til bilan ifodalanadi. Tilda har bir xalq uchun xos bo'lgan ichki shakl mavjud, ana shu ichki shakl milliy ma'naviyat va madaniyatning ifodasi sanaladi; til insonni tashqi muhit, tashqi dunyo bilan bevosita bog'lovchi vosita hisoblanadi»⁴ degan fikrni olg'a surgan edi. Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro zaruriy sharoitlar xarakterini alohida ta'kidlash lozim. Til tilshunoslik va madaniyatshunoslik mo"jizasi sifatida barcha madaniy boyliklarni o'zida mujassamlashtiradi, o'z navbatida, har qanday milliy madaniyat muayyan bir tilning xarakteri va o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Til, D.S.Lixachev ta'biri bilan aytganda, turli madaniy til hamjamiyatda mujassamlashgan milliy madaniyatlarni jamlovchi vazifasini bajaradi.⁵ Shu bilan birgalikda, til lug'aviy va ma'noviy tarzda madaniyatning jami qirralarini, murakkab bo'lgan butun jamiyatni qamrab olish qudratiga ega bo'lgan olam hisoblanadi. Shuning uchun amerikalik madaniy ijtimoiyat mutaxassis N. Silazer aytganidek, «Madaniyatning jami unsurlari tilda ifodalanishi mumkin». U tilga odamlarning tajribasini shakllaniruvchi va tashkil etuvchi muhim ijtimoiy-madaniy omil sifatida qarar ekan, bu holatni quyidagicha izohlaydi: «Til xuddi madaniyat singari umummaqbul tushunchalarga ega. Aloqa faqatgina barcha qatnashchilarga tushunarli, ular tomonidan qabul qilinuvchi va foydalanuvchi tushunchalar mavjud bo'lgan holatga ega». Ammo bunday «umummaqbul tushunchalar» imkoniyati, asosan, bir til doirasida mavjud bo'ladi. Bu erda falsafiy-ijtimoiy planda tilning yana bir muhim vazifasi – odamlarni ma'lum bir ijtimoiy guruh, etnik jamiyat doirasida shaxsni taqqoslash vazifasi ko'zga yaqqol tashlanadi. «Bir jihatdan muloqot qilish imkoniyati ijtimoiy guruh a'zolarini jipslashtiradi. Umumiyl til odamlarni birlashtiradi. Boshqa jihatdan esa – umumiyl til shu tilda gaplashmaydiganlarni inkor etadi». V.I.Karasikning fikriga ko'ra, “til va madaniyat – gumanitar bilimlarning muhim tushunchasidir. Tilning ijtimoiy mohiyati shundan iboratki, u dastavval individual va kollektiv til ongida mavjud bo'ladi. Shu sababli til kollektivi (bir tilda so'zlashuvchi) bir tomonidan alohida shaxsiyat, ikkinchi tomondan esa, tilda madaniyatni tashuvchi hisoblanadi».⁶ M.M.Baxtin milliy madaniyatni boshqa milliy madaniyatlar bilan dialog (hamkorlik)ga qarab o'zidagi ayrim xususiyatlarga chuqurroq e'tibor qaratishi xususida yozar ekan, jumladan, shunday deydi: «Biz begona madaniyat oldiga yangi savollarni qo'yamiz. Bunday savollar o'sha madaniyatga o'zinikilar tomonidan qo'yilmagan. Begona madaniyat bizning savollarimizga javob berar ekan, o'zida yangi qirralarni tuyadi, yangi ma'noviy chegaralarni namoyish etadi». Agar tilga madaniyatning tizimlovchi unsuri sifatida qaraladigan bo'lsa, unda madaniyatni ma'noviy tizim sifatida talqin etish mumkin. Y.M.Lotmanning so'zlariga binoan, boshqa madaniyat – bu muayyan bir til bilan

tilsimlangan xotiradir: “Til – bu tilsim (kod) hamda uning tarixidir”. Garchand til va madaniyat turli lug'aviy-ma'noviy tizim bo'lsa ham, ular ba'zi bir umumiyl jihatlarga ega, masalan, bu inson dunyoqarashini ifodalaydigan anglash shakllari bo'lishi mumkin. Bu shakllar o'zaro muloqotda mavjuddir; ham til va ham madaniyat uchun me'yoriylik va tarixiylik xos, ularning subekti – bu alohida hodisa yoki ijtimoiy uyushma, shaxs yoki jamiyat sanaladi. Zero, til haqiqatni ifodalaydi, madaniyat esa shu haqiqatning ajralmas qismidir. Demak, inson shu haqiqat bilan ro'baro' bo'lar ekan, til ham madaniyatning oddiy ifodalishidir. Boshqacha qilib aytganda, til inson borlig'ining muhiti bo'lib, insondan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, u insonning o'zida, ruhida, xotirasida va ongida o'zining shaklini fikrlar va aytildigan so'zlarda o'zgaruvchan holatda namoyon etadi. Mazkur muammo E.Sepir va B.Uorf hamda yangi gumboldtchilar maktablari namoyondalari tomonidan ham tadqiq etilgan va “lingvistik nisbiylik gipotezasi” deya nomlangan farazlar ishlab chiqilgan. Mazkur gipoteza asosida odamlar dunyoni turlicha, o'z ona tillari oynasida ko'radilar, degan g'oya yotadi. Bu g'oya tarafдорлари uchun real dunyo tilda ifodlangani uchun ham mavjuddir. Ammo har bir til borliqni o'ziga xos usulda ifodalagani sababli tillar o'zlarining “borliqning lisoniy manzarasi”ga egadirlar. Tillarning «borliqning lisoniy manzasi»ni aks ettirishida madaniyat, milliylik, qadriyat va an'analar muhim rol o'ynaydi. Biz dunyoni turlicha ko'ramiz va turlicha qabul qilamiz, lekin faqat til tashqi dunyoni ko'rishimiz va uni his etishimiz usulini belgilaydi. Uorf yozadi: “Aniqlanishicha, har bir til tizimining asosi faqatgina fikrlarni ifodalab berishgina emas. Aksincha, grammatikaning o'zi fikrni shakllantiradi, har bir individuumning fikrlash faoliyatida dasturilamal hisoblanadi, uning taassurotlarining tahlili va ajratib olishining vositasiga aylanadi. Biz borliqni ona tilimiz ko'rsatgan yo'nalishda qabul qilamiz. Biz ro'yodagi u yoki bu kategoriya yoki tamoyilni uning yaqqol ifoda etilayotgani uchun ajratib qabul qilmaymiz, aksincha, dunyo ko'z oldimizda bizning ongimiz shakllantirgan holatda paydo bo'ladi. Demak, holat bizning ongimizda saqlanadigan til tizimi orqali namoyon bo'ladi. Biz dunyoni tushunchalarda shakllantiramiz va mohiyatini boshqacha emas, aynan shu tariqa belgilaymiz. Bu holat ma'lum til jamoasi uchun kuchga ega va bizning tilimiz modeli va tizimida tasdiqlangan”.⁹ Bu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, Sepir-Uorf farazlarida til shu tilda so'zlashuvchi xalqning fikrlash qobiliyatini belgilab beradi. Dunyoni anglash qobiliyati fikrlovchi subekt qaysi tilda fikrlashiga ham bog'liq, degan fikr oldinga suriladi. Demak, olimning fikriga ko'ra, xalqning fikrlash qobiliyati ma'lum ma'noda uning madaniyatlilik darajasi bilan bog'lanadi. Ya'ni, agar xalq madaniy jihatdan etuklikka erishgan bo'lsa, bu uning tilida ham o'z aksini topgan bo'ladi. D.Olford, D.Seroll, D.Xayms tadqiqotlarida lingvistik nisbiylik gipotezasi o'zining dolzarb ifodasini topdi va sezilarli tarzda boyitildi. Misol uchun, D.Xayms tomonidan ilova qilingan tillarning funksional nisbiyligi

prinsipiga asosan tillarning aloqaviy amaliyotida farqlanishlar mavjud. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, bir qator olimlar (D.Dodd, G.V.Kolshanskiy, B.A.Serebrennikov, R.M.Uayt, R.M.Frunkina, E.Xollenshten) lingvistik gipotezani keskin tanqid ostiga olishadi. Masalan, B.A.Serebrennikov o'zining mazkur gipotezaga bo'lgan munosabatini quyidagi shartlarda ifodalaydi:

1. Anglash asosini atrofdagi, dunyodagi predmetlar va holatlar tashkil etadi, har bir til o'z shakllanishida dunyoni paydo etuvchi asosiy kuch emas, balki inson tomonidan atrofdagi dunyoning aks ettirilishi natijasidir; 2. Til ko'proq insonning fiziologik shakllanish xususiyatiga moslashgan, ammo bu xususiyatlar tirik jonning atrof-muhitga uzoq vaqt moslashishi natijasida paydo bo'lgan; 3. Tildan tashqari bo'lgan kontiumning notejis taqsimlanishi ilk yo'nalishlar davriga to'g'ri keladi. Bu holat tushunchalarning (ehsoslarning) har xilligi va oldingi asrlardan qolgan til zaxiralarining bir xil emasligi bilan izohlanadi.¹⁰ Hozirgi zamon olimlari tomonidan lisoniy nisbiylik farazi turlicha baholanadi. Ayni paytda til va madaniyat muammolari bilan jiddiy tarzda shug'ullanadigan barcha tadqiqotchilar bu gipotezaga murojaat etishadi. Zero, tilshunoslikda boshqa usullar yordamida anglashishining imkoniyati bo'lмаган masalalarni shu farazlar orqali tushunish engilroq kechadi. Masalan, ijtimoiy lingvistika asoschilaridan biri B.Bernstein madaniyatni grammatikaning ma'lum shakllarining paydo bo'lishiga, bu shakllarning ma'noviy va ta'limiy ahamiyatlariga saylovchi ta'siriga olishini aniqlashda Uorf asarlarining ahamiyati jiddiy bo'lganligini ta'kidlab o'tgan¹¹. M.Koul gipoteza g'oyalarini "bu tadqiqotlarning navqiron va muvaffaqiyatli sohasi – inson tildan ijtimoiy aloqa uchungina emas, balki fikrlash quroli vositasida ham foydalanishi darajasini o'rganish jarayonida yashab kelmoqda".¹² Til va madaniyat o'rtaсидаги munosabat xususidagi fikrlar buni asta-sekin til madaniyatning faktori, degan xulosaga olib keladi: Birinchidan, til ajdodlar merosining ajralmas bo'lagi hisoblanadi; ikkinchidan, til – bu madaniyatni o'rganish va o'zlashtirishning muhim jihozidir; uchinchidan, til madaniy tartibning eng muhim ifodasidir, zero, agar biz madaniyatning mohiyati – ilm, din va adabiyot deb olmoqchi bo'lsak, ularni tilsim, tilni esa, kalit deb qabul qilishimiz lozim. Shu bilan birgalikda, til va madaniyat o'rtaсидаги munosabatni bir butun buyum va uning bo'lagi orasidagi munosabat sifatida baholash mumkin. Til madaniyatning unsuri va uning quroli tarzida qabul qilinishi mumkin. Aslida bu ikkala tushuncha bir xil ma'noga ega emas. Ammo ayni damda til madaniyatga nisbatan muxtor maqomga ega va umumiylar tarzda mustaqil, muxtor lug'aviy-ma'noviy tizim ko'rinishida namoyon bo'ladi. Keyinchalik dialektika maktabi nazariyotchisi va faylasufi Georg Viligelim Fridrix Gegeli (1770-1831) Touluk asarlarini mutolaa qiladi. Toulukni hayron bo'lishiga sabab bo'lgan narsalar, uni xursand qildi. Gegeli shu darajada Mavlaviy qarashlarining ta'siriga tushib qoladiki, uning "vahdati vujud" nazariyasini o'zining "Falsafiy fanlar ensiklopediya" sida keltiradi.

Rumiy “aql”ni “aqli kull” va “aqli juz”ga bo’ladi. “Aqli kull” Rumiy nazarida ilohiy Mutlaq vujudning payg’ambarlikni yuzaga keltiradigan birinchi ayonlashuvi (ta’ayyuni avval)dir In jahon yak fikrat ast az Aqli kull, Aql chun shoh astu suvratho rusul. Mazmuni: Bu jahon Aqli Kulldan bir fikratdir Aql – shoh, suvratlar esa elchilar kabidir. Rumiy singari, Gegel falsafasida ham aql va tafakkur mutlaqlashtiriladi, ular inson va insoniyatga bog’liq bo’lmagan, tabiat, jahon tarixidan tashqaridagi absolyut mohiyat sifatida talqin etiladi (G’arb falsafasi. – T.: O’zbekiston Faylasuflari milliy jamiyat, “Sharq”, 2004.- B. 487). Gegelning dialektika haqidagi ta’limoti – miqdor va sifat o’zgarishlari, ayniyat va ziddiyat haqidagi qarashlari ham Rumiy tafakkuridan sarchashma oladi. Rumiy ham, Gegel ham dunyoni harakatlantiradigan va taraqqiyotga sabab bo’ladigan narsa ziddiyatdir, degan xulosaga keladilar. Benson tillar bir asliy manba’dan vujudga kelgan degan fikr va tushunchalar tarafdoi edi. U fors va arab tillarini Fransiya sharqshunosi Silvester De Sasidan o’rganadi va “Masnaviy”ni o’qib, do’stlari bilan suhbat jarayonida Mavlononing metafizikaga oid fikrlarini muhokama qiladi. Annemarie Shimmel bergen ma’lumotga qaraganda, Yozef fon Hammer (1774-1856) o’zining fundamental asari – “Eronda badiiy so’z san’ati tarixi” kitobida Olmoniyada birinchilardan bo’lib Rumiy hayoti, ijodi va qarashlari atrofida alohida to’xtalib o’tadi. Uning “Devoni Shams” g’azallaridan amalga oshirgan tarjimalarini o’qib chiqqan shogirdi - Fridrix Rukert (1788-1866) Rumiy g’azallari uslubida “G’azaliyot” nomli to’plam yaratdi. Bu g’azal janrining olman tilidagi ilk namunalari edi (Annemarie Shimmel. Islomning irfoniy jihatlari (fors tiliga tarjima). – Tehron, 1375.-B.496-497). Garchi Mavlaviy asarlarining tarjimalari yoki u haqda Amerikada naql qilingani ommaviy narsalar noqis yoki zaruriy ilmiy-nazariy tushunchalardan xoli bo’lsa-da, jahon xalqi mavjud tarjimalar orqali Mavlaviyning fikriy jozibalarini ilg’aydi, angraydi va turli tarz va usulda u bilan fikriy va botiniy aloqa o’rnatadi. Annemarie Shimmel o’zining “Shams shukuhi” deb nomlangan tadqiqotida quyidagi masalalar xususida bahs yuritadi: 1) qadimiy tarix va sarguzashtnomasi; 2) Rumiyning taxayyulot dunyosi; 3) Rumiy ilohiyoti: Yaratguvchi va yaratilgan mavjudotlar o’rtasidagi munosabat, Rumiyning inson haqidagi qarashlari; 4) Forsiyzabon adib va olmilarning Rumiy ijodi haqidagi mulohazalari; 5) Muallifning xotiralari. Annemarie Shimmel tasavvuf ta’limotining yirik tadqiqotchilaridan biri bo’lib, o’zidan ahamiyatga molik asarlar qoldirdi. Shimmel “Shams shukuhi” kitobida Mavlaviyning irfon va ilohiyotga oid fikrlarini tadqiqot doirasiga tortar ekan, unga nisbatan bo’lgan har qanday shubhani bartaraf etish, uning nuroni va samimi chehrasini ko’rsatishga harakat qiladi. Shimmel vahiy, inson maqomi, moddiy dunyo aksi, haqiqiy ishqning asl ildizi kabi mavzularga oid Mavlaviyning falsafiy fikrlariga jiddiy e’tibor qaratadi. A.Shimmelning XIX asr romantizmi davrida Mavlono Jaloliddin Rumiyning

nemis shoir va yozuvchilariga ta'siri masalasiga oid tadqiqoti ilm sohada kam uchraydigan hodisadir. U Mavlaviyning “Fiyhi mo fiyhi” asarini ingliz tiliga tarjima qildi. Undan tashqari Shimmel Mavlaviy ta'limotiga doir ko'pgina jiddiy maqolalar yozdi, ulardan “Mavlono Rumiy: kecha, bugun va erta” maqolasini alohida qayd qilish joizdir. Bu muallifning yana bir kitobi “Mening ruhim ayoldir”, deb nomlanib, “Masnaviyi ma'naviy”da keltirilgan ayollarga taalluqli hikoyat va dostonlar xulosasidir. U 1948 yilda “Masnaviy”dagi tasvirlar va obrazlar haqida yaratilgan chuqur va keng ilmiy tadqiqotini olmon tilida chop ettirdi. Bu kitob olimaning Rumiy ijodiy faoliyati haqida uzoq yillar olib borgan tadqiqotlari samarasidir. Uning eng muhim kitobi Bahoi Valad tarjimai holi va asarlariga bag'ishlangan.

Xulosa: til va jamiyat o'rtasida doimiy ta'sirlashuv kechadi. Fan va ta'lim, madaniyat va san'at, texnika va davlatchilikning taraqqiyoti til va jamiyat ta'sirlashuvining asosiy omillaridir. Bunday ta'sirlashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchi, albatta, inson va u mansub jamiyat. Jamiyat ehtiyojlari esa tilning vazifa doirasida kengayish, usluban to'lib-to'liqib borishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Serebrennikov B.A. O materialisticheskem podxode k yavleniyam yazika. –M., 1983. –S. 87.
2. Bernstein B. Social class, language and socialization // The psychosociology of language / Ed. S. Voscovici.- Chicago: Markham Publishing Co, 1972. 98.
3. Koul M. Kuliturno-istoricheskaya psixologiya. Nauka budushego. -M., 1997. –C. 156.